



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Mamatova Aziza Bo'ribojevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Logopediya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi salbiy omillar hamda nutqni rivojlantirish yo'llari va usullari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotda nutq o'stirish metodikasi, tajribaviy tahlil natijalari va amaliy tavsiyalar keltirilgan bo'lib, maqola ota-onalar, logopedlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari hamda pedagogika yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: nutq, bog'langan nutq, leksika, grammatika, fonetika, metodika, tajriba, qobiliyat, rivojlanish, "ochiq deraza", nuqson, muloqot.

Abstract: This article examines the peculiarities of preschool children's speech development, the negative factors affecting it, and effective ways and methods for its improvement. The study presents methodological principles, experimental findings, and practical recommendations. The article is intended for parents, speech therapists, preschool educators, and students of pedagogical specialties.

Key words: speech, coherent speech, vocabulary, grammar, phonetics, methodology, experience, ability, development, "open window," defect, communication.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности речевого развития детей дошкольного возраста, факторы, негативно влияющие на формирование речи, а также пути и методы их устранения. Освещены методические основы развития речи, результаты экспериментальных исследований и практические рекомендации. Работа адресована родителям, логопедом, воспитателям дошкольных образовательных учреждений и студентам педагогических направлений.

Ключевые слова: речь, связная речь, лексика, грамматика, фонетика, методика, опыт, способность, развитие, "открытое окно", дефект, общение.

KIRISH

Bolaning nutqi kattalar nutqi, ya'ni ota-ona va oila a'zolari asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq.

Nutq tug'ma qobiliyat hisoblanmaydi, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish va tushunish uchun bola nutqining me'yoriy rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini hamda nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim. Bola nutqidagi kamchiliklarning oldini olish uchun, avvalo, nutq rivojlanish davrlarini bilish muhim. Bu esa nutqning rivojlanish jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Masalan, 1 yosh—4 oylik bola gapirmayapti. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so'zlar qachon paydo bo'lishini bilsa, u holda bu bolaning normal yoki nonormal rivojlanayotganini aniqlay oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bola nutqining rivojlanishini juda ko'p olimlar kuzatishgan va tajribalar o'tkazishgan. Bulardan L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

- 1) tayyorlov davri (2 yoshgacha);
- 2) nutqning mustaqil shakllanish davri.



A. N. Leontev esa bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi:

- 1) tayyorgarlik davri – 1 yoshgacha;
- 2) bog'chagacha bo'lgan davr – 3 yoshgacha;
- 3) maktabgacha bo'lgan davr – 7 yoshgacha;
- 4) maktab davri ^[1].

Bola nutqining rivojlanishida 5–6 yoshgacha bo'lgan davrlar muhim hisoblanadi. L. S. Vigotskiy bu davrni “deraza” tushunchasi bilan ifodalagan, ya'ni bolaning rivojlanishidagi davrni ochiq derazaga taqqoslagan. Bunda bola har taraflama rivojlanadi, o'rganadi, atrofdagi barcha ijobiy va salbiy ta'sirlarni qabul qiladi. Bizga ma'lumki, nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlash jarayonida bolada 5 yoshdan so'ng bu nuqsonni bartaraf etishda ma'lum bir qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu vaziyatda pedagog va logopedlar nuqsonni bartaraf etishdan ko'ra, uning oldini olishi muhim hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi uchun pedagog va ota-onalar birgalikda harakat qilishi hamda metodikalar bilan ishlashi kerak.

Dunyodagi bolalar haqidagi qiziqarli ma'lumotlarga ko'ra, maktabgacha bo'lgan bolalar bir kunda 900 ga yaqin savol berar ekan. Bunda bolaning har bir savoliga javob berish kerak, chunki har bir javobsiz savol bolaning nutq rivojlanishida bo'shliq hosil qiladi. Hozirgi kunda bola nutqini rivojlantirish uchun zamonaviy usullar va metodikalar mavjud.

Bola nutqining to'laqonli rivojlanishi uchun muhim tavsiyalardan biri – kattalar bilan muloqotda bo'lishidir. Bola ilk yoshidan boshlab kattalarni yaxshi ko'rishi, g'amxo'rlik qilishi va iliq muloqotda bo'lishi uning jismoniy hamda aqliy rivojlanib borishiga asos bo'ladi. Oilada bolaning dastlabki bir haftaligidan boshlab muloqotda bo'lib, unga ashula ohangida alla aytish, kichik to'rtliklar, folklor, o'yin tarzida maqol va matallarni eshittirib borish bola bilan muloqotda bo'lishda katta emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va uni tinchlantiradi. Bolaning ilk yoshidagi davri o'yin bo'lib, bola o'yin orqali atrofdagi olamni tasavvur qiladi, o'rganadi, rivojlanadi va o'sadi. Kattalar qay darajada o'yinni sifatli tashkil qilishi va bu o'yin bolaning talabiga qanchalik to'g'ri kelishiga bog'liq. O'yinni o'tkazish tartibini bilish uchun logopedik ish usullarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bo'lim birinchi navbatda ona va bolaga tavsiya etiladi ^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba va tahlil usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachilar, logopedlar hamda 3–6 yoshli bolalar ishtirokida o'tkazilgan kuzatishlar asosida to'plandi. Bolalarning nutqiy faoliyati jarayonida ularning so'z boyligi, talaffuz aniqligi va grammatik tuzilma darajasi maxsus testlar va suhbatlar orqali baholandi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida o'rganilib, bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari aniqlashtirildi. Tadqiqotda statistik tahlil usuli orqali olingan natijalar solishtirildi, natijada nutq rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolaning nutqiy rivojlanishida muhim bosqichlardan yana biri – o'yin faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lib, u uch bosqichga bo'linadi:

1. Predmetli o'yinlar.
2. Syujetli-rolli o'yinlar.
3. Qoidali o'yinlar.

A. P. Usanovning ma'lumotlariga ko'ra, 3–4 yoshli bolalarning o'yin faoliyati 10–15 daqiqa, 4–5 yoshli bolalarning o'yin faoliyati 40–50 daqiqa, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyati esa bir necha soatgacha cho'zilishi mumkin. Bunda bolaning o'yinlar orqali leksika, grammatika, fonetika va bog'langan nutqi rivojlanishi bir karra ortadi ^[3].

Bola bilan birgalikda suhbat qurish, savol-javobli suhbat qilish va bolalar bilan so'z zanjiri kabi o'yinlarni o'ynash ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bolalarga hikoya aytib berish, she'r yod olish, rasmlar orqali savol-javob o'tkazish – “Bu nima?”, “Nima ish qilyapti?” kabi mashg'ulotlar o'tkazish foydalidir. Hozirgi kundagi ko'pgina multfilmlarda so'z boyligi kam va ravon bo'lmagani sababli, “g'udurdagan” tovushlar ko'p uchraydi, bu esa bolalarda nutqiy rivojlanishning orqada qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, bolaga so'zlashuv jarayonida nutqiy ravonligi mavjud bo'lgan, tarbiyaviy jihatdan inijlikni targ'ib qilmaydigan va to'g'ri tanlangan multfilmlarni ko'rsatish orqali ham bolalarning nutqiy rivojlanishida yaxshi natijalarga erishish mumkin.



Zamonaviy usullarda nutqni rivojlantirish deganda bolalarning nutqni muloqot va madaniyat vositasi sifatida o'zlashtirishlari, ularning so'z boyligini kengaytirish, kitoblar bilan tanishish, fonemik eshitishni rivojlantirish va boshqa jarayonlar tushuniladi. Uning asosiy vazifalari ro'yxati quyidagicha:

1. **So'z boyligini shakllantirish.** Bolalar muloqotda nafaqat bilishlari, balki tushunishlari va turli xil so'zlarni ishlatishlari kerak. Ularning ma'nosini hamda to'g'ri qo'llanilishini tushuntira olishlari ham muhimdir.
2. **Grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish.** Bolalar ularni maktabgacha yoshdayoq o'zlashtirib olishadi. Ular asta-sekin zamon, tuslanish va boshqa grammatik shakllarni hisobga olgan holda gaplarni to'g'ri tuzishni o'rganadilar.
3. **Nutq qobiliyatlarini rivojlantirish.** Bu yerda tovushlarni aniq talaffuz qilish, ulardan so'zlarni shakllantirish, so'zlarni iboralarga birlashtirish va boshqa nutqiy jarayonlar nazarda tutiladi.
4. **Muloqot ko'nikmalarini egallash.** Bolalar tinglashlari, idrok etishlari, boshqalarning gaplarini tushunishlari va dialoglarda faol ishtirok etishlari kerak.

Hozirgi bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish metodologiyasining boshqa vazifalari – kitob madaniyati bilan tanishish, matnlarni eshitish orqali tushunish qobiliyatini, nutqning tovush va intonatsiya madaniyatini rivojlantirishdir.

Dialog-suhbat o'tkazish – bu tilning kommunikativ funksiyalarining eng yorqin namoyonidir. Olimlarning fikricha, bu muloqotning birlamchi tabiiy shaklidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari bolalarga bir qator dialogik ko'nikmalarni egallashga yordam beradi:

- suhbatni boshlash, uni davom ettirish va tugatish, to'g'ri sur'atda, to'g'ri intonatsiya bilan gapirish qobiliyati va boshqalar;
- nutq odob-axloq qoidalaridan foydalanish qobiliyati;
- atrofdagi vaziyatni muhokama qilish, atrofdagi bolalar bilan birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish va natijalarga erishish qobiliyati;
- og'zaki bo'lmagan qobiliyatlar.

Monologga to'xtaladigan bo'lsak, nutqni rivojlantirishning zamonaviy tushunchalari ham muayyan ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Masalan:

- mavzuni tushunish, uni tushuntirish;
- zarur ma'lumotlarni tanlash, keraksiz ma'lumotlarni chiqarib tashlash;
- olingan ma'lumotlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish;
- nutqni o'zboshimchalik bilan va maqsadli qurish.

Ma'lum bo'lishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv va nutqiy rivojlanishiga zamonaviy yondashuvlar ularni monolog va dialog shaklida so'zlashishga o'rgatishi kerak. Natijada hissiyotlar, ma'lum bir intonatsiya va ifodaviy vositalar orqali tabiiy, izchil suhbatni shakllantirish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, bolalarning shaxs bo'lib shakllanishida nutq katta rol o'ynaydi. Nutqning rivojlanmay qolishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bu nuqsonlarning oldini olish, ularning kelib chiqmasligi va bolalarda nutqning rivojlanishini to'g'ri hamda samarali kechishini ta'minlash uchun logopedik korreksion mashg'ulotlarda alohida e'tibor berishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova M. Yu. Logopediya. – Toshkent, 2007.
2. Shomahmudova Sh. R. Barmoqlar mashqi va nutq o'stirish. – Toshkent, 2018.
3. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: "NIF MSH", 2020.
4. <https://anrotech.ru/blog/sovremennye-tehnologii-i-podhody-k-razvitiyu-rechi-detej-doshkolnogo-vozrasta/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.